

# Qurilish ishlari



## RAQAMLAR:


- Qurilish-montaj ishlari hajmi – 1424,0 mlrd. so‘m
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi – 16,2 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 53,6 foiz
- Qurilishda norasmiy sektoring ulushi – 30,2 foiz

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 1424,0 mlrd. so‘mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,4 foizni tashkil etdi va 0,4 foiz punktga ko'paydi.


Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 231,3 mlrd. so‘mni yoki 102,2 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 foiz punktga ko'paydi.



## Qurilish ishlari, mlrd.so‘m




## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari




Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1372,0 mld. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 96,3 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 foiz punktga oshdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining ulushi



Jami qurilish pudrat ishlari tarkibidagi "Bino va inshootlar qurilishi" faoliyat turi bo'yicha 960,2 mld. so'mlik ishlar bajarildi, va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,1 foiz punktga ko'paydi. Shuningdek, "Fuqarolik obektlari qurilishi" faoliyat turi bo'yicha 175,2 mld. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, yoki o'tgan davrga nisbatan 6,3 foizga punktiga kamaydi, "Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari" faoliyat turi bo'yicha 288,6 mld. so'mga bajarilib, yoki o'tgan davrga nisbatan 2,8 foiz punktga kamaydi.


## Qurilish ishlari tarkibi



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish va texnik jixotdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 1036,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 388,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish ishlari 10,3 foiz punktga ko'paydi. Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 6,8 foiz punktga kamaydi.

## 2018 yil yanvar-oktyabr oylari uchun qurilish ishlari



Qoraqalpog'siston Respublikasi statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish

statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova

(0361) 222-75-91